

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**

**JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA OMMAVIY  
AXBOROT VOSITALARI ISHTIROKINING TASHKILIIY-HUQUQIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Jahonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li**

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.....3

**Жахонов Шохрух Шухрат угли**

Совершенствование организационно-правовых основ участия средств массовой информации в осуществлении общественного контроля.....23

**Jakhonov Shokhrukh Shukhrat ugli**

Improving the organizational and legal framework for the participation of mass media in the implementation of public control.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**

**JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHDA OMMAVIY  
AXBOROT VOSITALARI ISHTIROKINING TASHKILY-HUQUQIY  
ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.4.PhD/Yu1222 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://karsu.uz/uz/автореферат/>) va «ZiyoNET» Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Bekov Ixtiyor Rustamovich,**  
yuridik fanlar doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Asadov Shavkat G‘aybulloyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Daumenov Berdaq Aymuratovich**  
yuridik fanlar nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «13» sentabr soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 742012, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Ch. Abdirova ko‘chasi 1-uy, Tel: +99-861-223-60-78, E-mail: [karsu\\_info@edu.uz](mailto:karsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (356-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 742012, O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Ch.Abdirova ko‘chasi 1-uy, Tel: +99-861-223-60-78).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «28» avgustda tarqatildi.  
(2025-yil «28» avgustdagi 14-raqamli reyestr bayonnomasi).

**E.D.Kutibaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**G.M.Berdimuratova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Z.A.Reymova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda davlat boshqaruvi tizimlarining shaffofligini ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik nazorati, ayniqsa ommaviy axborot vositalarining roli tobora ortib bormoqda. Xalqaro shaffoflik tashkiloti (Transparency International) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining ishtiroki yuqori bo'lgan mamlakatlarda korrupsiya darajasi o'rtacha 23 %ga past ekanligi aniqlangan<sup>1</sup>. BMTning hisobotlarida qayd etilganidek, so'nggi besh yilda dunyoda ommaviy axborot vositalari tomonidan oshkor qilingan qonunbuzarliklar 68 %ga oshgan<sup>2</sup>. "Chegarasiz muxbirlar" (Reporters Without Borders) tashkilotining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlash va ularning jamoatchilik nazoratidagi ishtirokini rag'batlantirish demokratik jamiyatning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida tan olingan. Mazkur tashkilot reytingida O'zbekiston 2025-yilda 11 pog'ona pasayib, 2023-yildagi 137-o'ringandan 148-o'ringa tushgani<sup>3</sup> esa mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Jahonda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalarining bu jarayondagi rolini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslarini rivojlantirish, ushbu sohani raqamlashtirish, ommaviy axborot vositalari faoliyatining shaffofligi va mustaqilligini oshirish, "Watchdog" (nazoratchi) jurnalistika amaliyotini rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ijtimoiy media platformalarining o'rnini kengaytirish, jamoatchilik nazoratining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini mustahkamlash muammolari muhim tadqiqot yo'nalishlari sifatida o'rganilmoqda. Jumladan, AQShdagi Freedom House, Jamoat yaxlitligi markazi (Center for Public Integrity), Yangi Zelandiyadagi Boshqaruv va siyosat tadqiqotlari instituti (IGPS) va boshqa xalqaro tashkilotlarda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi ishtiroki va uning samaradorligini oshirish mexanizmlari, ommaviy axborot vositalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, raqamli transformatsiya sharoitida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish masalalari muhim tadqiqot yo'nalishlari sifatida o'rganilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, bu sohadagi milliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, xususan, jamoatchilik nazorati jarayonlarini raqamlashtirish, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish tizimini kuchaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining 12-maqsadi ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy

---

<sup>1</sup> <https://www.transparency.org/en/cpi/2024>

<sup>2</sup> <https://www.un.org>

<sup>3</sup> <https://rsf.org/en/index>

asoslarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining roli va jurnalistlarning kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish, fuqarolar muammolari hamda islohotlar ijrosini o‘rganishda ularning salohiyatidan samarali foydalanish vazifalari belgilangan<sup>4</sup>. Shuningdek, “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ommaviy axborot vositalari huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, ularning professional faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish ustuvorligi qayd etilgan<sup>5</sup>. Bu esa mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishning dolzarbligi va muhimligini yaqqol ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-apreldagi “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF–6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi PQ–4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 22-sentabrdagi 203-sonli “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy jihatlari, ommaviy axborot vositalarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari, xorijiy davlatlar tajribasi mustaqil tadqiqot sifatida kompleks tadqiqot o‘rganilmagan.

Respublikamiz olimlari X. Odilqoriyev, R.R. Hakimov, Sh.G. Bafayev, O. Oqyulov, B.I. Ismoilov, X.R. Muxamedxodjayeva, J.M. Abdullayev, M. Mirhamidov, U. Ismoilov, A. Yuldoshev, O. O‘sarov, Sh.U. Yakubov, B.A. Narimanov, O. Usmonov va boshqalarning ilmiy ishlari, darslik va o‘quv uslubiy

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son

qo‘llanmalarida jamoatchilik nazoratining ayrim jihatlarini tahlil qilingan.

MDH mamlakatlari olimlaridan S.S. Kupreyev, A.V. Sokolov, V.V. Fedorov, S.M. Zubarev, V.N. Kazakov, K.S. Yevsikov, K.A. Belyatkina, N.N. Kuleshova, T.V. Troiskaya, S.S. Taxoyeva, A. Kojuxov, K.V. Ribkina, D.N. Baxrax, A.V. Boyarskix, A.A. Goncharov, S.L. Nujnova, A.D. Konstantinov, A.A. Tertichniy, Y.V. Karimova, N.N. Kovaleva, M.A. Lapina, A.G. Revin, V.I. Lapin, I.L. Bachilo, V.N. Lopatin, M.A. Fedotov va boshqa olimlar bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ham so‘nggi yillarda bir qator tadqiqotlar ishlari e‘lon qilingan. Xususan, Richard Steiner, S. Walker, O.E. Lejst, V.V. Grib, N.V. Berger, A.I. Stanko, M. Berlin, A.N. Parxomenko, D.R. Yenikeeva, Stuart Weir, David Beetham, A.N. Arinin, V. Ostrom, R. Koch, E. Grande, D. Uillmen, E. Ongaro, Edward Elgar kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan<sup>6</sup>.

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan ayrim tahliliy ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa-da, yurtimizda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi bilan bog‘liq nazariy huquqiy muammolar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, shuningdek, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi asosida alohida dissertatsiya sifatida tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib “Rivojlangan davlatlar qonunchilik amaliyoti va xorijiy davlatlarning ijobiy yutuqlarini nazariy tadqiq etish asosida olingan natijalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish” bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va ushbu sohadagi qonun hujjatlari hamda huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jamoatchilik nazorati tushunchasi va mazmun-mohiyatini tahlil qilish;

O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish;

ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishini huquqiy jihatdan o‘rganish;

ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilishining huquqiy mexanizmlarini tadqiq qilish;

ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllarini o‘rganish;

jamoatchilik nazoratini jurnalistik tekshiruv orqali amalga oshirishning huquqiy asoslarini tahlil qilish;

jamoatchilik nazoratini ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirishning ayrim xorijiy davlatlar tajribasini tadqiq qilish;

ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish

---

<sup>6</sup> Mazkur olimlarning tadqiqot ishlarining to‘liq nomi ishning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati qismida berilgan.

faoliyatiga doir qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha muayyan takliflarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari bilan bog'liq konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro umume'tirof etilgan standartlar, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda "Konstitutsiyaviy huquq"da, "Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq"da mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, so'rovnomma, induksiya, deduksiya va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilganlik yoki aralashganlik uchun javobgarlik belgilash zarurligi asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari davlat organlari hamda tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish jarayonida ishtirok etishi mumkinligi asoslangan;

nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari normativ-huquqiy hujjatlarning jamoatchilik ekspertizasini qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkazishga haqli bo'lib, ushbu ekspertiza doirasida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga doir takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkinligi asoslab berilgan;

mamlakatimizda OAVni ro'yxatdan o'tkazishni bosqichma-bosqich bekor qilishni va bu uchun dastlab muassisning ommaviy axborot vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi arizasi ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan o'n kunlik muddatda ko'rib chiqilishi zarurligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"jamoatchilik nazorati" va "jurnalistik tekshiruv" tushunchasi va mazmun-mohiyatini nazariy-metodologik jihatdan anglash maqsadida "jamoatchilik nazorati" va "jurnalistik tekshiruv" tushunchasining mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, ilmiy va amaliy qo'llash uchun taklif etildi;

huquqshunoslik sohasida jamoatchilik nazoratini tadqiq qilgan olimlarning tadqiqotlari o'rganilib, ularning ilmiy ta'riflarini jamoatchilik nazoratining obyektini qamrashiga ko'ra shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkinligi ilmiy asoslab berildi;

O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini huquqiy tartibga solishga yo'naltirilgan qonunchilik bazasi tahlil etilib, tegishli huquqiy asoslarning shakllanish bosqichlari ilmiy asoslab berildi;

ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning jamoatchilik nazoratini amalga

oshirishining samaradorligini oshirish hamda ularning axborotga bo'lgan huquqlarini kafolatlash maqsadida jurnalist so'roviga qonun hujjatlarida belgilangan muddatda javob bermaganlik yoki jurnalistga axborot berishni cheklash yoki ma'lumot berishdan bosh tortganlik uchun qonunchilikda javobgarlik choralari belgilanishi lozimligi asoslab berildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumnazariy xulosalar, qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar "Konstitutsiyaviy huquq", "Qiyosiy konstitutsiyaviy huquq" va "Konstitutsiyaviy huquqning ilmiy-amaliy muammolari" fanlarida mavjud bo'lgan nazariy qarashlarni va milliy qonunchilik normalarini hamda huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish orqali asoslangan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, xalqaro tajriba, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik manbalari o'zaro tahlil qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilayotganligi, natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilinganligi, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Konstitutsiyaviy huquq", "Ommaviy axborot vositalari huquqi", "Konstitutsiyaviy huquqning ilmiy-amaliy muammolari" fanlarini o'qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish sohasidagi tadqiqot bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilganlik yoki aralashganlik uchun qonunchilikda javobgarlik belgilash lozimligi haqidagi taklif 2023-yil 1-maydagi O'RQ-837-son "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasi ikkinchi qismini ishlab chiqishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 7-martdagi 04/2-09/1126/614/1180-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining huquqlarini mustahkamlab, ularning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishini huquqiy kafolatlashga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari davlat organlari hamda tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish

jarayonida ishtirok etishi mumkinligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi O‘RQ–860-son “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi uchinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-iyuldagi №3/08-120-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif jamoatchilik nazorati vakillarining vakolatlari yanada kengayishiga xizmat qilgan;

nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari normativ-huquqiy hujjatlarning jamoatchilik ekspertizasini qonunchilikda belgilangan tartibda o‘tkazishga haqli bo‘lib, ushbu ekspertiza doirasida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga doir takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin ekanligini qonunchilikda belgilashga doir taklif O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi O‘RQ–860-son “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-iyuldagi №3/08-120-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif orqali ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratiga oid vakolatlari kengaytirilib, normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasida jamoatchilikning ishtirok etishini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ommaviy axborot vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi arizaning ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan ko‘rib chiqish muddatini o‘n besh kundan o‘n kunlik muddatga tushirish lozimligini qonunchilikka kiritishga doir taklif 2024-yil 7-fevraldagi O‘RQ–905-son “Davlat xizmatlari ko‘rsatish hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi (“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasi uchinchi qismiga kiritilgan o‘zgartirish)ni shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-iyuldagi №3/08-120-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining faoliyatini boshlashining tezlashishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 8 ta (3 ta xorijiy nashrlarda) va to‘plamlar tarkibida 5 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, yetti paragrafnii o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning eʼlon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jamoatchilik nazorati – huquqiy tadqiqot obyekti sifatida”** deb nomlanib, unda jamoatchilik nazorati tushunchasi, mazmun-mohiyati, Oʻzbekistonda jamoatchilik nazoratining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari, ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning huquqiy tahlili amaldagi qonunchilik misolida tahlil qilingan.

Bugungi kunda demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri unda jamoatchilik nazoratining qay darajada oʻrnatilgani bilan bogʻliq hisoblanadi. Demokratik davlatlarga nazar tashlaydigan boʻlsak, bunday davlatlarda jamoatchilik nazorati oʻzining maʼlum bir koʻrinishi bilan demokratiyaning asosiy tayanchi boʻlib, mamlakatda qonun ustuvorligiga xizmat qilmoqda. Shu bois jamoatchilik nazorati tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan oʻrganish, bu tushuncha mazmun-mohiyatini ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish ushbu tadqiqot ishining dastlabki vazifalaridan hisoblanadi.

Dissertant jamoatchilik nazorati tushunchasi dastlab psixologiyadan siyosatshunoslik va huquqshunoslikka kirib kelganligini qayd etadi va huquqshunoslik sohasida jamoatchilik nazoratini tadqiq qilgan olimlarning tadqiqotlarini oʻrganib, ularning ilmiy taʼriflarini jamoatchilik nazoratining obyekti qamrashiga koʻra shartli ravishda **ikki guruhga** boʻlib oʻrgangan.

**Birinchi guruhdagi** (V. Fedorov, S.M. Zubarev, Rut Benedikt va boshq.) olimlar (**tor maʼnoda**) jamoatchilik nazoratining obyekti sifatida faqat davlat organlari va mansabdor shaxslarning inson huquq va erkinliklariga rioya qilishini eʼtirof etadi. Dissertant tomonidan bu fikrlarga qisman qoʻshilish mumkinligi, sababi bu guruhdagi olimlar jamoatchilik nazoratini koʻproq klassik maʼnoda tushunishi va jamoatchilik nazorati ancha keng tushuncha ekanligi toʻgʻrisida xulosaga kelingan.

**Ikkinchi guruhdagi** (A. Kojuxov, K.V. Ribkina, Charliz Kuley va boshq.) olimlar (**keng maʼnoda**) jamoatchilik nazoratining obyekti sifatida davlat organlari va tashkilotlarining inson huquq va erkinliklariga rioya qilishdan tashqari, tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qatʼi nazar boshqa tashkilotlarni ham inson huquq va erkinliklari hamda jamiyat manfaatlariga rioya qilishidagi faoliyatini eʼtirof etadi. Tadqiqotchi bu fikrlarni qoʻllab-quvvatlaydi va buni davlatning baʼzi funksiyalari boshqa subyektlarga oʻtayotgani bilan izohlaydi.

Tadqiqotchi tomonidan jamoatchilik nazorati konstitutsiya darajasida mustahkamlangan Xitoy, Tailand, Venesuela kabi xorijiy davlatlar konstitutsiyalari va Rossiya, Ozarbayjon, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Oʻzbekistonning jamoatchilik nazorati toʻgʻrisidagi qonunchiligi, AQSh va Yevropa davlatlari tajribasi shuningdek, olimlardan T. Tard, V. Gegel, A.V. Sokolov, V. Fedorov, S.M.

Zubarev, V.N. Kazakov, N.N. Kuleshova, T.V. Troitskaya, S. Taxoyeva, A. Kojuxov, D.N. Baxrax, O.A. Zemskova, K.V. Ribkina, Rut Benedikt, Charliz Kuley, Aeron Golub, Glenn Robinson, Richard Shtayner, T. Do'stjonov, S. Hasanov, H. Odilqoriyev, R. Hakimov, Sh. Yakubov, Sh. Bafayev va boshqa olimlar tomonidan jamoatchilik nazorati tushunchasiga bildirilgan fikrlar tahlil qilinib, ilmiy bahs-munozaraga kirishilgan hamda tahlillar natijasida dissertant tomonidan "jamoatchilik nazorati" tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O'RQ-474-son "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuniga jamoatchilik nazorati tushunchasining quyidagi ta'rifini kiritish taklif etilgan:

"jamoatchilik nazorati – jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan davlat hokimiyati va organlari, ular mansabdor shaxslari hamda tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'i nazar boshqa tashkilotlarning o'z faoliyati davomida jamiyat hamda inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kafolatlariga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat".

O'zbekistonda jamoatchilik nazoratining rivojlanish tendensiyasi mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib shartli ravishda davriy nuqtayi nazardan uch bosqichga bo'lib o'rganish mumkin.

**Birinchi bosqich** 1991–2013-yillarni o'z ichiga oladi va bu vaqt oralig'ida jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari shakllandi. Shu sababli bu davr mamlakatimizda jamoatchilik nazoratining **shakllanish yillari** hisoblanadi.

Bu davr 1991-yil 15-fevralda "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun, 1997-yil 26-dekabrda jamoatchilik nazoratining muhim subyektlaridan biri bo'lgan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun va boshqa bir qator qonunlar bilan xarakterlanadi.

**Ikkinchi bosqich** 2014–2022-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr shunisi bilan xarakterliki, bu davrda jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, mamlakatimiz tarixida ilk marta 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuniga asosan, jamoatchilik nazorati Konstitutsiya darajasida mustahkamlanib, uning huquqiy poydevori mustahkamlandi. Bundan tashqari, jamoatchilik nazorati alohida qonun bilan tartibga solinib, uning chegaralari aniq belgilandi. Shu sababli bu davrni **rivojlanish yillari** hisoblanadi.

**Uchinchi bosqich** 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan bog'liq bo'lib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Bu davrni tom ma'noda **taraqqiyot bosqichi** desak bo'ladi.

Dissertant J. Abdullayev, Sh. Saydullayev, B. Xasanov, A. Goncharov va boshqa bir qator olimlarning tadqiqot ishlaridagi OAVning jamoatchilik nazoratiga doir faoliyatining huquqiy va boshqa jihatlarini o'rganib, ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini olib borishida, asosan, ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar jalb etiladi. Bundan tashqari, davlat nazorati subyektlardan farqli o'laroq, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi natijasida aniqlangan xato va kamchiliklar uchun huquqiy (ma'muriy, jinoiy, intizomiy va boshqalar) javobgarlikka tortolmaydi. Biroq

aniqlangan xato va kamchiliklarni xalqdan yashirib bo'lmashligi, ommaga oshkor bo'lishi, muammolarga mas'ullarning e'tiborini tortishi bilan eng samarali mexanizm ekanligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Muallif OAVning jamoatchilik nazoratiga doir faoliyatini tahlil qilib, OAV qarorlar qabul qilish jarayoniga har doim ham ishtirok etolmasligi va qonun ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasligi, ammo qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarga o'z munosabatini bildirish orqali ko'pchilikning e'tiborini qarata olishi natijasida bu hujjatlarning xalqchil va samarali bo'lishiga xizmat qilishini tahlil qilgan.

Tadqiqotchi tomonidan Konstitutsiyaning "Qonuniylik prinsipi" buzilmasligi uchun Konstitutsiyaning 81-moddasi 2-qismini "*davlat qonunchilikka muvofiq ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi*" deb tahrirlash taklif etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Jamoatchilik nazoratini ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy jihatlari va shakllari**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishining huquqiy mexanizmlari, ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari, jamoatchilik nazoratini jurnalistik tekshiruv orqali amalga oshirishning huquqiy asoslari tahlil etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan so'nggi yillarda mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish va ularning siyosiy faolligini ta'minlashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirilayotgani, aholining huquqiy va siyosiy faolligini oshirishda ommaviy axborot vositalari o'ziga xos ko'prik vazifasini bajarayotgani, ommaviy axborot vositalari bir vaqtda juda ko'plab o'quvchilariga xabar yetkaza olish qobiliyati bilan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda eng samarali mexanizm hisoblanishi bayon qilingan.

Mazkur bobda OAV faoliyatining huquqiy kafolati bir qator xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlar, jumladan, xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, paktlar va deklaratsiyalar kabi hujjatlardan o'rin olgani bayon etilib, 1948-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingandan so'ng OAV faoliyatining huquqiy kafolati xalqaro va mintaqaviy darajadagi ko'plab hujjatlarda yana bir bor tasdiqlangani ilgari surilgan.

Bundan tashqari, dissertant 1966-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1950-yil 4-noyabr kuni qabul qilingan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, 1977-yilda qabul qilingan Jeneva konvensiyasi, 1987-yilda Butunjahon matbuot erkinligi qo'mitasi tomonidan qabul qilingan Matbuot erkinligi xartiyasi, 1995-yil 26-may Belarus poytaxti Minsk shahrida Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi konvensiyasida OAVning axborot olish va tarqatishdagi huquqi qayd etilganligini ilgari surgan hamda mazkur xalqaro standartlardagi OAVning axborot olish va tarqatishdagi huquqiga oid asosiy normalar mazmunini tahlil qilgan.

Muallif V.V. Grib, S.L. Nujnova, Pol Grubax, Hatchings komissiyasi va boshqa bir qancha tadqiqotlarga tayanib, OAVning davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish uchun avvalo OAVning o'zini huquqlari kafolatlangan bo'lishi

va bunga qo‘shimcha ravishda mustaqil sud hokimiyati bo‘lishi lozimligi, sababi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi institutlar har qancha jamoatchilik nazorati ostida bo‘lsa ham, lekin qonun ustuvorligi bo‘lmasa, jamiyatda qonunlar ishlamasa bu holda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonsiz va foydasiz degan qarashni ilgari surgan.

Dissertant MDH davlatlari, Yevropa va AQShning OAVni ro‘yxatdan o‘tkazishni taqqoslab, OAVni ro‘yxatga olish Yevropa va AQShda o‘xshash bo‘lsa, MDH davlatlarida OAVni ro‘yxatdan o‘tkazishda go‘yoki ko‘proq majburiyat yuklangan degan xulosaga kelgan. Shu sababli ilg‘or davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda OAVni ro‘yxatdan o‘tkazishni bosqichma-bosqich bekor qilishni va bu uchun dastlab OAVni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtini 15 kundan 10 kunga tushirishni hamda bosma OAVni ro‘yxatdan o‘tkazishni bekor qilib, faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan OAV tegishli organni xabardor qilgan holda boshlashi mumkin ekanligini qonunchilikda mustahkamlash lozimligini qayd etadi.

Bu esa shunisi bilan ahamiyatliki, bunday holda, ro‘yxatga olish hech qanday nazorat funksiyalarini amalga oshirmaydi, ro‘yxatga oluvchi organ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha ma‘lumotlar taqdim etilganda ro‘yxatdan o‘tishni rad eta olmaydi.

Buni so‘rovnoma natijalari ham tasdiqlagan. 300 dan ortiq respondent qatnashgan so‘rovnomaga ko‘ra, “Bosma OAVni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni bekor qilishga qanday qaraysiz?”, degan savolga respondentlarning 51,4 foizi “Qo‘shilaman, bu bosma OAVni rivojlanishiga xizmat qiladi”, 15,7 foizi “Qo‘shilmayman, bunda tartib yo‘qoladi”, 16,5 foizi “Javob berishga qiynalaman”, 16,3 foizi “Menga farqi yo‘q”, deb javob berishgan.

Bundan tashqari, bugungi kunda insonlar asosiy axborotni ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Buni so‘rovnoma natijalari ham tasdiqlaydi. “Bugungi kunda axborotni asosan qaysi manba orqali olasiz?”, degan savolga respondentlarning 40,5 foizi “Ijtimoiy tarmoqlar orqali”, 19,6 foizi “Televideniye orqali”, 19,3 foizi “Gazeta va jurnallar orqali”, 20,6 foizi “Saytlar orqali”, deb javob berishgan.

Mazkur so‘rovnoma natijalari ijtimoiy tarmoqlarning axborot olishdagi o‘rni tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu holat, ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish va yanada samarali axborot tarqatish imkoniyatlarini yaratish zarurligini anglatadi. Ommaviy axborot vositalarining ro‘yxatdan o‘tkazishni erkinlashtirish va ular faoliyatini raqamlashtirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Dissertant OAVni raqamlashtirish orqali ularning moliyaviy mustaqillikka erishishi mumkin ekanligini qayd etib, AQShdagi The New York Timesning 2023-yil oxirida raqamli obunachilar soni 10 milliondan oshgani, Buyuk Britaniyada BBC va AQShda The Washington Post sun‘iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan xabarlar tahlilini amalda qo‘llayotgani, Janubiy Koreyaning Yonhap News agentligi avtomatlashtirilgan AI yangilik robotlarini ishlab chiqqan bo‘lib, bu tezkorlik va aniqlikni ta‘minlayotganini qayd etib, xalqaro tajribada allaqachon OAVni transformatsiya qilish boshlanganni ta‘kidlaydi.

Shuningdek, tadqiqotchi OAVning transformatsiyalashuvi unga har tomonlama mustaqillik olib kelishini, OAV o‘zini o‘zi moliyaviy ta‘minlay boshlashini va bu bevosita OAVning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishining yanada samarali

bo‘lishiga xizmat qilishini qayd etadi.

Tadqiqotchi ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari haqida to‘xtalib, mazkur shakllarning o‘zi ham alohida tadqiqot obyekti ekanligini qayd etadi.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunning 18-moddasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalasi keltirilgan. Lekin na qonunning o‘zida na Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘ridagi kodeksda na Jinoyat kodeksida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga to‘sqinlik qilganlik uchun sanksiya ko‘rsatilmaganligi huquqiy bo‘shliqni keltirib chiqaradi. Milliy qonunlarimizda bu holat ko‘p kuzatiladi, ya‘ni qonunda ma‘lum bir harakat yoki harakatsizlik taqiqlangani bilan u sanksiya bilan mustahkamlanmasa javobgarlikka tortilmasdan shunday qolib ketaveradi. Shu sababli dissertant Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘ridagi kodeksida jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun sanksiya belgilashni taklif qiladi.

Dissertant ommaviy axborot vositalari vakillarining davlat organlari huzurida akkreditatsiya qilinishi, ularni davlat organlarining ochiq hay‘at majlislarida hozir bo‘lishi va ishtirok etishi, ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik fikrini o‘rganish, jamoatchilik muhokamalari, monitoring o‘tkazish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning boshqa shakllarini tahlil qilib, bu shakllarning xorijiy amaliyoti haqida to‘xtalgan va “Jamoatchilik ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqish lozimligini qayd etgan.

Tadqiqotchi tomonidan jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning shakllari berilgan bo‘lib, bunda jurnalistik tekshiruv to‘g‘ridan to‘g‘ri jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning shakli sifatida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ammo qonun hujjatlari va bir qancha olimlarning ilmiy-nazariy xulosalari asosida jurnalistik tekshiruvini ham jamoatchilik nazoratining shakllari sifatida qayd etish mumkinligi asoslab berilgan.

Bugungi kunda “jurnalistik tekshiruv” va “jurnalistik surishtiruv” ko‘pincha bir-biri bilan almashtirilib qo‘llanadi. Jurnalistik tekshiruv atamasini ilk bor amerikalik jurnalistlar ishlatgan. Bu atama amerikalik jurnalistlar tomonidan “*investigation*” kabi ishlatilgan. Keyinchalik rus tiliga o‘zlashgan. Inglizcha “*investigation*” so‘zining rus tiliga ikki xil tarjimasini mavjud: “tekshiruv” va “o‘rganish”. Bu so‘zni o‘zbek tiliga ham to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimasini “tekshiruv”, “surishtiruv” ma‘nolarini beradi. Shuningdek, hozirda ko‘pincha jurnalistik surishtiruv atamasi qo‘llanadi.

Bu tushuncha hozirda jamoatchilik e‘tiboridan chetda bo‘lgan ayrim faktlarni qidirish, o‘rganish va nashr etishga nisbatan qo‘llanadi. Shu sababli jurnalistik tekshiruv va jurnalistik surishtiruv bir-biri bilan almashtirib qo‘llangani bilan, asosan xalqaro amaliyotda jurnalistik tekshiruv atamasi qo‘llanadi. Jurnalistik surishtiruv atamasini qo‘llanishi jurnalistlarning imkoniyatini cheklab qo‘yishini ta‘kidlash lozim. Shu sababli dissertant jurnalistik tekshiruv atamasidan foydalangan ma‘qul degan fikrni ilgari suradi.

Bundan tashqari, dissertant tomonidan xalqaro va milliy olimlarning ilmiy nazariy xulosalari tahlil qilinib, “jurnalist tekshiruvini” tushunchasiga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasining 24.04.1997-yildagi 402-I-son “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 9-moddasini quyidagicha tahrirlash taklif etiladi: “*jurnalist tekshiruvini – jurnalistning ko‘pchilikka*

*noma'lum bo'lgan axborotni aniqlash, olish, tekshirish, to'plash, uni o'rganish, sharhlash orqali har xil suiiste'molchiliklarni keng ommaga oshkor qilishdagi faoliyati".*

Dissertant OAV xodimlari va jurnalistlar kasbiy faoliyati davomida ko'plab tahdidlarga duch kelayotganligini qayd etadi. Buni so'rovnomada natijalari ham tasdiqlaydi. 300 dan ortiq respondent qatnashgan so'rovnomada "OAV xodimlari va jurnalistlarning kasbiy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi kerakmi?", degan savolga 71.8 % respondent "Belgilanishi kerak", deb javob berishgan bo'lsa, 28.2 % respondent "Belgilash kerak emas" deb ovoz berishgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotchi jurnalistning qonuniy kasbiy faoliyatiga to'sqinlik qilganlik uchun Jinoyat kodeksida ham sanksiya belgilash lozimligini qayd etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari ishtirokini takomillashtirish istiqbollari**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda jamoatchilik nazoratini ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshirishning ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratiga doir faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari kabi masalalar tahlil qilingan.

Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda shaffoflik mavjud bo'lmaganda hokimiyat organlari faoliyati to'g'risida to'liq, ishonchli, o'z vaqtida va muntazam ma'lumot olish imkonsiz hisoblanadi va bu o'z navbatida jamoatchilik nazoratining yetarli darajada amalga oshirish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Bu esa demokratiyaning buzilishiga olib keladi. Shu sababli dissertant xorijiy davlatlarda jamoatchilik nazorati qanday va bu jamoatchilik nazoratida ommaviy axborot vositalari qanday ishtirok etishini tahlil qilgan.

Jumladan, AQShda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini olib borishda asosan jurnalistik tekshiruv yetakchilik qiladi. Jurnalistik tekshiruvning asosiy maqsadi jamiyat, hokimiyat va mansabdor shaxslar e'tiborini inson huquq va erkinliklarining buzilishiga, salbiy ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ekologik va boshqa muhim ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hodisalarga qaratishdan iborat.

Buyuk Britaniyada OAV, jurnalistlar, internet blogerlari bilan birgalikda Jamoatchilik palatasi ham jamoatchilik nazoratini olib borishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Germaniya qonunchiligi davlat boshqaruvining har qanday shakli ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi, hatto u Federal kansler yoki GFR Prezidenti bo'lsa ham, xalq oldida doimiy hisobdorlik tamoyili o'rnatilgan. Germaniyada fuqarolar yoki barcha yuridik va jismoniy shaxslar o'z faoliyati va ijtimoiy munosabatlari ustidan bevosita jamoatchilik nazoratini amalga oshirishlari mumkin.

Rossiya Federatsiyasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi Jamoatchilik palatasi tuzilgan. Jamoatchilik palatasi har uch yilda bir marta saylanadi va fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlarini hisobga olish, ularning huquq va erkinliklarini shakllantirish va himoya qilish maqsadida fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorligini amalga oshiradi. Shuningdek, hokimiyat organlari

faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

AQSh tajribasiga tayangan holda jamoatchilik nazoratining subyektlari bo'lgan OAV, fuqarolar va boshqalarga qonunchilik bilan taqiqlanmagan axborot olishni qonuniy yo'l bilan olishni kafolatlash va qonunchilik bilan taqiqlanmagan axborotni taqdim etmaslik uchun javobgarlik belgilash lozim. Chunki bu muammo bilan OAV xodimlari va jurnalistlar ko'p duch kelishmoqda. Buni so'rovnomada natijalari ham tasdiqlaydi. 300 dan ortiq respondentlar qatnashgan so'rovnomada "Bugungi kunda OAV xodimlari va jurnalistlar axborot olish bilan bog'liq muammoga duch kelyaptimi?", degan savolga 73.8 % respondent "Ha, duch kelyapti" deb ovoz bergan, 26,2 % respondent "Yo'q, duch kelmeyapti" deb ovoz berishgan.

Tadqiqotchi yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini 198<sup>7</sup>-modda bilan to'ldirib, mazkur moddani quyidagicha ifodalashni taklif qilgan:

*"jurnalist so'roviga qonun hujjatlarida belgilangan muddatda javob bermaganlik yoki jurnalistga axborot berishni cheklash yoki ma'lumot berishdan bosh tortish – fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi, qonun bilan qo'riqlanadigan ma'lumotlar bundan mustasno"*.

